



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and
Trends in Educational Sciences
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

ANALYSIS OF O'TKIR HASHIMOV'S STORY "THE LAST VICTIM OF WAR"

Usarova Laylo Ibragimovna¹

Norjigitova Sevinch Aliddin qizi²

Finland Pedagogical Institute of Samarkand

KEYWORDS

War, sacrifice, strawberry,
milk, aunt Umri, Shone'mat,
Shoikrom, Khadija

ABSTRACT

This article talks about the analysis of the work of O'tkir Hashimov, who is a great talent and the author of more than 10 novels and short stories, "The Last Victim of War".

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.4281/zenodo.10247867](https://doi.org/10.4281/zenodo.10247867)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, Finland Pedagogical Institute of Samarkand, Uzbekistan

² Student of the first course of the Finland Pedagogical Institute of Samarkand, Uzbekistan

O'TKIR HOSHIMOVNING "URUSHNING SO'NGGI QURBONI" HIKOYASINING TAHLILI

KALIT SO'ZLAR/**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

Urush, qurban, qulupnay,
sut, Umri xola, Shone'mat,
Shoikrom, Xadicha

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada katta iste'dod egasi bo'lgan, 10 ortiq roman va qissalar muallifi O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" asari tahlili haqida gap boradi.Ushbu epik turga mansub asarda urushning xalqqa keltirgan bir qator fojalari yorqin bayon qilingan.

Hech kimga sir bòlmagani kabi 1941-1945-yillar oralig'ida bo'lib o'tgan shiddatli Ikkinchiji jahon urushi barchani birdek g'alvirdan o'tkazdi."Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r"degan dono xalqimiz. [1;35]

Urush boshlanishi bilan mamlakatlararo bir qator siyosiy vaziyatlar tubdan ózgardi. Xalq ham ma'nan, ham jismonan katta talafotlar kórdi. Jumladan, ishchi kuchidan yetarlicha foydalanib, ularning haqi berilmasligi, oziq- ovqat narxining shiddatli tarzda kótarilishi, bundan tashqari, xalq hayotini yorituvchi, ularga ma'naviy ozuqa ulashuvchi adiblarga ham urush jadallahsgan sayin bir qator cheklanishlarning qóyilishi, hattoki, yaqinlarning bir-biri bilan o'zaro munosabatlariga putur yetkazdi. Odamlarni ochlik ilinjida turli xil qing'ir yo'llarga kirishga majbur etdi.O'tkir Hoshimov shunday ayanchli nuqtani qalamga olar ekan, shu yo'sinda u o'zining "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasini yaratdi. Urush davriga oid bir qator asarlar yaratilgan bo'lib, shular orasida ushbu asar alohida o'rinni tutadi.

Avvalo, O'tkir Hoshimovning hayot yo'liga nazar tashlar ekanmiz, adib 1941-yil ayni urush boshlangan payti dunyoga keldi. Yoshligidan ilmga adabiyotga, san'atga qiziqqan bo'lajak yozuvchi 5-sinfda o'qib yurgan kezlaridayoq she'r yozishni mashq qilardi. Dastlabki kitobi talabalik yillarida nashr etilgan. U butun hayoti davomida amaliy va ijodiy ishni teng olib bordi. [2;132]

U dastlabki qissasi bilanoq yirik adib Abdulla Qahhorning nazariga tushgan. O'tkir Hoshimovning "Cho'l havosi" qissasini o'qigan adib yozuvchiga maktub bitib, asar uni suyuntirib yuborganini aytgan,"sof,samimiyl,tabiiy,iliq,rohat qilib o'qiladi" gan asar yozgani bilan tabriklagan edi.[2;132]

Haqiqatan ham, adib ijodidagi asarlar bir o'qiganda o'quvchini o'ziga rom etib oladigan, voqealar rivoji ham birin-ketin bayon etilgan. Shu tufayli ham asarlari katta qiziqish bilan mutolaa qilinadi. Asar tahliliga keladigan bo'lsak, dunyoning hamma joyida urush bo'limgan bo'lsa-da, uning "sovuv havosi" butun insoniyatni larzaga solib, hayotini tubdan o'zgartirdi. Bu holatni asar qahramonlari hayotida yaqqol ko'rishga guvohmiz. Mazkur asarning bosh qahramoni bo'lgan Shoikromning hayotida o'chmas iz qoldirdi. Aytgancha, asarda Umri xola Shoikrom va Shone'matning onasi Xadicha esa Shoikromning xotini bo'lib, ularning uch nafar qiz farzandi bor. Ma'lumki, urush davrida har oiladagi erkaklarni urushga olib ketishgan. Shoikrom va ukasi Shone'mat bu ko'rgilikka duchor

bo'lishmadi. Chunki akasi to'qimachilik kombinatida montyor yetishmasdimi yo o'zi yaxshi ishlarmidi, harqalay, uni olib qolishdi. Ukasi esa og'ir dardga — sil kasalligiga chalingan edi. [1;151] Ular urushga bormagan bo'lsa-da, undan-da og'irroq, musibatli voqeа sababchisi bo'lishdi. Bundan tashqari, ocharchilik va qahatchilik davri barchani egri yo'llarga boshladi. Odamlar kun ko'rish maqsadida o'g'riliklar, qotilliklar sodir etadi. Bitta-yu bitta sigiriga kun ko'rayotgan Umri xolaning ham oilasiga zarar yetadi. Bunday holatlarning hammasiga urush sabab.

Asardagi Xadicha obrazi ham juda mukammal ishlangan bo'lib, u o'g'rilar tugul, hattoki, o'z qaynonasi Umri xoladan ham qizg'anib, hovlining o'rtasidan devor torttirishga majbur qiladi. Garchi Umri xola buni xohlamasa-da, o'g'lining baxti uchun rozi bo'ladi. O'zi esa onasining mehriga suyanib qolgan Shone'mat bilan birga qoladi. Xadicha esa hovlini ikkiga bo'lgani yetmagandek, "qo'shni" sidan, hattoki, bir kosa ovqatni ham yashiradi. Bir tarafdan to'g'ri-da, har qanday ayol bunday og'ir vaziyatda o'z oilasini - bolalarini va turmush o'rtog'ining g'amini chekadi. Lekin adib Xadichada shunday xususiyatni ham gavdalantiradiki, u pushtalar orasidagi qulupnaylarga e'tibor beradi. Ularning kundan kunga kamayib ketayotganligi xavotirga soladi.

- Shu kunlarda yana o'g'ri oralab qoldi, - dedi Xadicha ko'rpani qoqib tancha chetiga solarkan. - Qulupnay qizarmasdan bitta qo'ymay terib ketishyapti.

- Vahima qilma!—dedi Shoikrom qovog'ini uyib.—Bolalar terib yegandir. O'g'ri qulupnayga keladimi?

- Og'ziga bir dona olgan bo'lsa, buyurmasin. Nega kelmas ekan? Bir hovuchini obchiqib sotsa, bir kosa jo'xori beradi. Ana, borib qarang, devorning bir cheti o'pirilib yotibdi?![1;153]

Bunday qarg'ish alomatlari ham urushning insonlar hayotidagi unutilmas va qora kunlari sababli alamli iztiroblar natijasida yuzaga kelgan, Bizningcha, Xadichaning bu alamli gaplaridan g'azab otiga mingan Shoikrom òg'rini tutish maqsadida qulupnay pushtalari orasiga yorug'lik ulashuvchi simni tashladi.

U chaqqon harakat qilarkan, a'zoyi badani terlab ketgan, ammo buni o'zi payqamas, faqat bir so'zni takrorlardi: "Menga desa otib yubormaydim!" Uyiga kirar ekan, hali uxlashga ham ulgurmagan ediki, birdan hovlisida faryod eshitila boshlandi. Borib qaraganda esa murg'akkina onasi ikki bukilib bir qo'lida qulupnay, bir qo'lida sim ushlagancha yotar edi. Buni ko'rgan Shoikrom o'z onasining qotili bo'lganini payqadi va bor ovozida dod soldi. [1;155]

E'tiborli jihat shundaki, ona o'z farzandi uchun, ya'ni Shone'matga sut olish uchun o'g'rilikdan ham qaytmagan edi. Shoikromning aybi esa ukasidan yaqin kunlarda xabar olmagani va o'g'rini birdaniga o'ldirib qo'ya qolish bilan ulardan qutulish haqidagi g'araz fikridir. Bu esa uning kaltafahm ekanligidan dalolat beradi. Balki, u óg'irlayotgan kishi kimningdir yaqin insoni ekan haqida o'ylab ham ko'rmadi. Urushning achchiq alami shu fojia bilan yakun topdi. Bundan ko'ra, urushda fidokorona qatnashib, dushmanlarni o'ldirgani ma'qul emasmidi?

"Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi qahramoni Umri xola urush ketayotgan joylardan minglab kilometr uzoqda bo'lsa-da, urushning eng sònggi qurboniga aylanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashim mumkinki, urush balosi barchaga birdek raxna soldi, ularni insoniylikdan ancha yiroqlashtirdi. Ocharchilik natijasida aholi "bir-birini kórarga kózi yóq, otarga óqi" timsolida rivojlanib bordi. Butun dunyoda bólgan siyosiy vaziyat xalqni savodsizlikka olib keldi, aholini "qora mehnat" qilishga majbur etdi. Xullas, urush butun dunyoda o'z tomiga qanday yo'l bilan bo'lmasin, qurbonlarni giriftor qildi.

Mana, necha yildirki, xalqimiz uzoq tarixiy yólni bosib ótgan ekan, ular bir qora tushdek ótdi, lekin biz,yoshlar ósha kunlar haqida mana shunday asarlar orqali bilib olamiz va bu bizga bugungi kun uchun shukrona keltirib yashashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S. Ahmedov, R.Qo'chqorov, Sh, Rizayev, Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik- majmua,1-qism,qayta ishlangan 4-nashri, Toshkent,2017;
2. Tafakkur.net, Toshkent,2017;
3. Ahmedon Sunnat, Qosimov Begali, Qo'chqorov Rahmon, Rizayev Shuhratilla, Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik,to'rtinchi nashri, "Sharq" nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent, 2020.